

**Samarqand viloyat hokimligining 2025-yil 12-fevraldagi 06-06/72-sonli
“Tojikiston Respublikasi adabiyotshunos, olim, tarixchi va madaniyat vakillari
bilan “Imkon qadar do‘stlaringizni yo‘qotmang” (To tavoni do‘stonro gum
makun) mavzusida o‘tkaziladigan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyani yuqori
saviyada tashkil va o‘tkazish yuzasidan viloyat hokimligining chora-tadbirlar
rejasi”ga asosan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida
amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
HISOBOT**

Samarqand viloyat hokimligining 2025-yil 12-fevraldagi 06-06/72-sonli “Tojikiston Respublikasi adabiyotshunos, olim, tarixchi va madaniyat vakillari bilan “Imkon qadar do‘stlaringizni yo‘qotmang” (To tavoni do‘stonro gum makun) mavzusida o‘tkaziladigan ilmiy-amaliy konferensiyani yuqori saviyada tashkil va o‘tkazish yuzasidan viloyat hokimligining chora-tadbirlar rejasi”ga asosan 2025-yil 13-fevral kuni Samarqand shahridagi “Nurafshon” madaniyat markazida “Imkon qadar do‘stlaringizni yo‘qotmang” (To tavoni do‘stonro gum makun) mavzusida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyasi va konsert dasturiga universitetning O‘zbek filologiyasi fakulteti professor-o‘qituvchilari, magistrantlari va talabaliridan 50 nafarining ishtiroki ta’minlandi.

Mehmonlarning universitetga tashrifi bo‘yicha 2025-yil 14-fevral kuni Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Tojik tili va madaniyati markazining tantanali ochilish marosimi”ning dasturi ishlab chiqildi va dasturga asosan tadbirlar tashkil etildi.

Tojikiston Respublikasi adabiyotshunos, olim, tarixchi va madaniyat vakillari SamDU Arxeologiya muzeyiga tashrif buyurishdi.





Jumladan, soat 10:00 da Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tili va madaniyati instituti binosida “Tojik tili va madaniyati markazi”ning tantanali ochilish marosimi boshlandi.



Tadbirda Tojikiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi Favqulodda va Muxtor Elchisi Rahmonzoda Abdujabbor, Tojikiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti Qobiljon Xushvaqtzoda, Tojikiston Respublikasi fan va madaniyat vaziri o'rinbosari Davlat Safar, Samarqand viloyat hokimi o'rinbosari Rustam Qobilov va Samarqand davlat universiteti Tojik filologiyasi va sharq tillari kafedrası professori, filologiya fanlari doktori Juma Hamroevlar so'zga chiqishdi.





“Tojik tili va madaniyati markazi”ning tantanali ochilish marosimi tadbiri yakunlangach, SamDU Biokimyo instituti binosi, fa’ollar zalida Tojikiston va O’zbekistonlik olimlar va shoirlar ishtirokida “Ganji suxan” ilmiy-adabiy to’garagi a’zolarining do’stlik mavzusidagi chiqishlari bo’lib o’tdi.







**Ilmiy tadqiqotlar va innovatsion
rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i**

H.Xushvaqto'v